

Sentabr, 2025-Yil

**QANDLI DIABETGA CHALINGAN BEMORLARDA KUZATILADIGAN
POLINEYROPATIK ASORATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Nurmatov Diyorbek

Tojiev Jasurbek

Ziyadov Nodirbek

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Ilmiy rahbar: **PhD Azavova Taxmina**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17118534>

Annotatsiya. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda qandli diabet bilan kasallanganlar soni 350 milliondan oshgan bo'lib, ularning 85–95%ini 2-tur qandli diabet tashkil etadi. Diabetik polineyropatiya esa ushbu kasallikning eng jiddiy va keng tarqalgan asoratlaridan biridir. Tadqiqotning maqsadi – qandli diabet bilan kasallangan bemorlarda polineyropatiya asoratlarining uchrash xususiyatlarini aniqlash, yosh va jins omillari bilan bog'liqligini o'rganish. Tadqiqot Andijon shahar markaziy poliklinikasida olib borilib, 360 nafar qandli diabet bilan og'riqan bemor kuzatildi. Shulardan 334 nafari 2-tur qandli diabetga chalingan bo'lib, 270 nafarida (80,8%) polineyropatiya asoratlari aniqlangan. 40–60 yosh oralig'idagi bemorlar 38%, 60 yoshdan yuqorilar 52%ni tashkil etdi. Ayollarda polineyropatiya erkaklarga nisbatan ikki barobar ko'p uchradi (68% ga 32%). Klinik jihatdan kombinirlangan turdagi polineyropatiya eng ko'p uchraydigan shakl ekanligi aniqlandi. Shuningdek, bemorlarda surunkali xolesistit (25%), pielonefrit (15%), kamqonlik (10%), gipertoniya (15%), Covid-19dan keyingi asoratlar (18%) va boshqa yondosh kasalliklar kuzatildi. Natijalar diabetik polineyropatiya bemorlarning hayot sifatiga keskin ta'sir etishini ko'rsatadi. O'z vaqtida tashxis qo'yish va shifokor tavsiyalariga rioya qilish asoratlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: qandli diabet, 2-tur diabet, diabetik polineyropatiya, kombinirlangan turi, asoratlar, yosh omili, jins omili.

Tadqiqotning dolzarbligi: Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, qandli diabet bilan kasallanishlar soni bugungi kungacha 350 milliondan ortiq insonlarda aniqlangan. Shu ko'rsatkichlarning, taxminan, 85% dan 95% gacha bo'lgan qismi qandli diabetning 2-turiga tegishli.

Diabetik polineyropatiya esa 2-tur qandli diabetning global va jiddiy asorati hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu tadqiqotdan maqsad shuki, poliklinikaga qandli diabet kasalligi bilan murojaat qilgan va "D" nazoratda turgan bemorlardagi 2- toifa qandli diabet va uning natijasida kelib chiquvchi polineyropatiya asoratini kelib chiqish sabablarini o'rganish. 30-35 yoshdan yuqori ayollar va erkaklarda polineyropatiyaning uchrash nisbatini tadqiq qilish.

Material va uslublar. Shu vaqtgacha Andijon shahar markaziy poliklinikasiga 360 nafar qandli diabet bilan og'riqan bemorlar "D" nazoratga qo'yilgan. Qandli diabet diagnostikasida nevrologik holat, diagnostik test ma'lumotlari, oftalmologik tekshiruv, qonning gemoreologik xususiyatlarini o'rganish va qondagi glukoza-lipidlar almashinuvi holati asosida belgilanadi. Bunda bemorlarning barchasida umumiy qon tahlili, umumiy siydik tahlili, qonning bioximik tahlili o'tkazildi. Bemorlar UTT, kardiolog ko'rigida EKG, nevropatolog, oftalmolog, xirurg umumiy ko'rigidan o'tkazildi. Bundan tashqari, bemorlar rentgenologik tekshiruvdan ham o'tdi,

Covid-19 ni boshidan o'tkazganmi yoki yo'qligi tadqiqot uchun eng muhim qismlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 360 ta qandli diabet bilan kasallangan bemorlardan 334 tasi 2-tur qandli diabet bilan kasallangan. Shu kasallanishlardan 270 tasida diabetik polineuropatiya asoratlari uchraganligi ko'rildi. 30-40 yosh oralig'idagi bemorlar umumiy bemorlarning 10%ini, 40-60 yosh oralig'idagi bemorlar 38%ini, 60 va undan yuqori yosh oralig'idagi bemorlar 52%ini tashkil etdi. Ushbu bemorlardan 86 (32%) tasini erkaklar, 184 (68%) tasini ayollar tashkil qilyapti. Asosan, kuchli depressiya va qo'rquvdan keyingi holatlar ayollarda ko'p uchrayapti. Polineuropatiyaning klinik kechishiga ko'ra sensor va vegetativ turlariga nisbatan kombinirlangan turi ko'p uchrashi aniqlandi. Bundan tashqari, bemorlarda polineuropatiya asoratidan tashqari yondosh kasalliklari ham mavjudligi aniqlandi. Bemorlarning 25%i (67 ta) surunkali xolesistit, 15%i (41 ta) surunkali pielonefrit, 10%i (27 ta) surunkali kamqonlikning turli darajalari, 4%i (10 ta) stenokardiya, 18%i (49 ta) Coviddan keyingi asoratlari va O'SOK, 15%i (41 ta) gipertonikaning turli darajalari, 13%i (35 ta) aralash semizlik bilan kasallangan. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, qandli diabet va uning natijasida kelib chiquvchi polineuropatiya asorati ayollarda erkaklarga nisbatan 2 barobarga ko'p uchrashi aniqlandi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, qandli diabetdan keyingi polineuropatiya eng ko'p, ya'ni 70-75% holatlarda uchrayapti. Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, diabetik polineuropatiyaning kombinirlangan turi aholi o'rtasida ko'p uchramoqda. Diabetik polineuropatiya natijasida, oyoq va qo'llar og'riqni sezmay qolishi, ko'zlar ko'r bo'lib qolishi, buyraklar funksiyasining ishdan chiqishi kabi alomatlar kuzatilmoqda. Bunday asoratlarning oldini olish uchun bemorda kasallik alomatlari paydo bo'lgandayoq shifokorni xabardor etishi va shu bilan birga shifokor tavsiya etgan muolajalarni o'z vaqtida olishi kerak

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азимова, А. А., Маликов, Д. И., & Шайкулов, Х. Ш. (2021). МОНИТИРОИНГ ЭТИОЛОГИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ СЕПСИСА ЗА. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 48, 18-22.
2. Азимова, А. А., Абдухоликов, С. Х., & Бозоров, Х. М. (2023). Осложнение глюкокортикоидной терапии у больных сахарным диабетом, перенесших covid-19. ББК 5я431 М42 Печатается по решению Редакционно-издательского совета Государственного гуманитарно-технологического университета, 18, 10-13.
3. Супхонов, У. У., Файзиев, Х. Ф., Азимова, А. А., & Абдурахмонов, Д. Ш. (2024). СУЩЕСТВУЮТ СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ЛИПОСАКЦИИ, КОТОРЫЕ УСПЕШНО ПРИМЕНЯЮТСЯ ДЛЯ КОНТУРНОЙ ПЛАСТИКИ ТЕЛА. NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI, 1(2), 18-22.
4. АЗИМОВА, А. А., & МАЛИКОВ, Д. И. (2022). ПОВРЕЖДЕНИИ МЯГКОТКАНЫХ СТРУКТУР КОЛЕННОГО СУСТАВА И УЛЬТРАЗВУКОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ. МОЛОДЕЖНЫЙ ИННОВАЦИОННЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Воронежский государственный медицинский университет имени НН Бурденко, 11(2), 10-13.